



TIL O'RGANISHDA LEKSIK KO'NIQMANI RIVOJLANTIRISHDA FAOL VA NOFAOL SO'ZLARNING AHAMIYATI

Muxtarova Bernur Arslanbek qizi

Renessans ta'lim universiteti

Fiologiya va tillarni o'qitish: Ingliz tili fakulteti 2-bosqich talabasi

muxtarovabernur7@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932304>

Annotatsiya: Mazkur maqolada til o'rganishdagi leksikaning ahamiyati, faol va nofaol so'zlarning mohiyatini anglash, ulaning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, ularni kontekstlarda faol qo'llash, faol va nofaol so'zlarning farqlarini tushunish, nofaol so'zlarni faol so'zlarga aylantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: leksika, leksik ko'nikma, faol so'zlar, nofaol so'zlar.

Annotation: This article explores the importance of lexicon in language learning, the essence of active and passive words, their specific characteristics, the active use of these words in context, understanding the differences between active and passive vocabulary, and the process of transforming passive words into active ones.

Key words: lexicon, lexicon competence, active words, passive words.

Ma'lumki til o'rganishda leksik ko'nikma markaziy o'rinni egallaydi. Leksik ko'nikma - bu shaxsning so'z boyligini egallashi, hamda uni muloqotda mazmunli, to'g'ri va kontekstga mos ravishda qo'llay olish bilan bog'liq til kompetensiyasidir. Ayniqsa bu ikkinchi til o'rganuvchilar uchun nutq faoliyatining barcha turlariga – tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Til o'rganish jarayonida leksik ko'nikmani, ya'ni so'z boyligini samarali o'zlashtirish va undan unumli foydalanish qobiliyatini rivojlantirishda faol va nofaol so'zlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ikki tushuncha o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, tilni o'rganuvchining so'z boyligini shakllantirish va nutqiy malakalarini takomillashtirishda o'ziga xos o'rin tutadi.

Faol so'zlar — bu til o'rganuvchi nafaqat tushunadigan, balki o'zining og'zaki va yozma nutqida erkin ishlata oladigan so'zlardir. Bular kundalik muloqotda, fikrni ifodalashda va yozishmalarda keng qo'llaniladigan so'zlar hisoblanadi.

Nofaol so'zlar — bu til o'rganuvchi eshitganda yoki o'qiganda tushunadigan, lekin o'z nutqida kamdan-kam qo'llaydigan yoki umuman ishlatmaydigan so'zlar qatlamidir. Odatda, nofaol so'zlar zaxirasi faol so'zlarga nisbatan ancha keng bo'ladi. Ammo ularni foydalashdi qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Faol so'zlarni biz kundalik muloqotda va yuzish ko'nikmaklarida muntazam ravishda qo'llaymiz chunki ularni tushunish, yodlashga va qo'llashga osson va biz



til o'rganish davrining boshidayaq ushbu so'zlarga juda ko'p marotaba duch kelamiz va bu so'zlarning faol bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday so'zlar odatda nafaol so'zlardan darajasi kichik boladi va o'qilishi sodda va ravshan bo'ladi. Bunday so'zlarni odatda yangi til o'rganuvchilar juda ko'p ko'rishadi va shu sababli bu so'zlarning yuqori darajadagi sinonimlarini va antonimlarini ham yodlash oson kechadi. Bir faol so'z orqali juda ko'p nafaol, darajasi yuqori so'zlarni o'rganish mumkin. Misol uchun ingliz tilidagi **good** so'zining sinonimlarini va antonimlarini ko'rib chiqsak sinonimlar: great, fine, excellent, wonderful, superb, outstanding, splendid, first-rate, top-notch. Antonimlari: bad, poor, terrible, awful, inferior, low-quality, lousy. Ko'rib turganingizdek bitta so'z orqali ko'plab yuqori darajali so'zlarni o'rganish mumkin shuningdek biz namunada ko'rsatgan good so'zining ham sinonimi bo'lgan outstanding so'zi ham shu so'zlar sirasidan.

Chet tili o'rganishda ko'p o'quvchilarning asosiy muammosi murakab tuzilgan, akademik ilmiy matnlarni tushinmaslik va biz bu muammoning yechimini faol so'zlar va qo'shimchalar orqali topa olamiz, misol uchun: ingliz tilidagi re- va faol so'zlardan biri write so'zini qo'shsak rewrite so'zi hosil bo'ladi va bu so'zning ma'nosi qayta yozish bo'ladi va biz bir so'z orqali ikkita so'z organa olamiz.

Faol so'zlarning ahamiyati qanday muhim bo'lsa, nafaol so'zlarning ahamiyati undan ham muhimroq va murakkabroq chunki biz faol so'zlarni har kuni musiqa audiolarda eshtishimiz, matn va kontekstlarda ko'rishimiz, esselarda keng foydalanishimiz va muloqotlarda foydalanishimiz mumkin va bizda bu mavzuda muammo yuzaga kelishi mushkul ammo nafaol so'zlarni foydalanish uchun avval ularni tushunishimiz, qanday foydalanishni va uning asil ma'nosini anglashimiz zarur.

Nafaol so'zlar odatda ilmiy maqolalarda, kitoblarda va siyosiy qo'lyozmalarda ko'p uchraydi va ko'p til o'rganuvchilar ushbu so'zlarga diqqat qaratmaganliklari sababli matnlarni tushinmaslik, suhbatda kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Nafaol so'zlar odatda leksik darajasi yuqori, tarixiy, eskirgan, shevaga oid, faqat badiiy asarlarda uchraydigan yoki o'rnini zamonaviy so'zlar egallagan so'zlar hisoblanadi. Bularga misol qilin o'zbek tilidagi "qozi", "ena", "sovut" so'zlari misol bo'la oladi va ushbu so'zlar amaliy muloqatda deyarli foydalanilmaydi. Ushbu turdagi so'zlar qanchalik nutqimizni kengaytirishga hizmat qilmasin, ularni to'g'ridan – to'g'ri nutqga kiritish ko'p hollarda zarur bo'lmaydi.

Shunindek biz nafaol so'zlar orqali tilning taraqqiyot bosqichini, tarixini, madaniyatini kengroq o'rganishga sazovor bo'lamiz va bu tilga tezroq va samarali moslashishimizga hissa qo'shadi. Shunindek u tarixiy va ijtimoiy-kulturaviy matnlarni chuqur tushunishga va fikr almashishga yordam beradi.



Har bir nafaol soʻz kelajakda faol boʻlishi mumkin, hozirgi baʼzi faol soʻzlar kabi yoki aksincha muloqotdan chiqib ketishi ham mumkun. Muloqotda hamma soʻz ham har doim ishlatilmaydi yoki uning oʻrnini boshqa yangisi egallaydi agar bir silda soʻzlovchilar shu tildagi baʼzi soʻzlarni ishlatishdan toʻxtashsa yoki uning oʻrnini boshqa soʻz egallasi ushbu soʻzlar nutqimizda oʻz oʻrnini yoʻqotadi.

Nutqimizda biz tushunadigan ammo foydalanishqa qiynaladigan, foydalanish tartibini bilmaydigan va maʼnosini toʻgʻri va Ravshan yoritib bera olmaydigan soʻzlarimiz ham yoʻq emas va shu turdagi soʻzlar ham nafaol soʻzlar sirasiga kiradi. Bunday soʻzlar odatda qadimiy asarlarda yoki yuqori darajadagi ilmiy asarlarda koʻp uchraydi.

Nafaol soʻzlarni yozlashning eng samarali usullaridan biri bu, uni faol soʻzlar bilan bogʻlab oʻrganish. Koʻp hollarda nafaol soʻzlar faol soʻzlarning sinonimi boladi va bu bizga nafaol soʻzlarni yodlashga zamin yaratadi. Yana bir nafaol soʻzlarni yodlash uslubi faol soʻzlar bilan uzviy bogʻliq chunki biz matnda yoki audiolarda maʼlum bir jumlaning tushnmasak biz oʻzimiz tushunadigan va maʼnosini yaxshi biladigan soʻzga qaraymiz va shu soʻz orqali mazmun chiqarishga harakat qilamiz. Soʻzlarni shunchaki yodlash emas ularni toʻgʻri qoʻllashni ham bilish zarur buning uchun biz notanish soʻzlarni gaplarda qoʻllashimiz kifoya va natijada nafaol soʻzlarni faol soʻzlaega aylantiramiz. Koʻplan chet tili oʻrganuvchi oʻquvchilar mashqlar, audiolar va matnlarni tahlil qilishdan keng foydalanar va tez-tez takrorlash usullaridan foydalanishar ekan va bu ham juda samarali usul. Bizning nutqimizda qanchalig nafaol va yuqori darjali soʻzlar bor ekan u shunchalik goʻzallashadi.

Nafaol soʻzlarni oʻrganishdagi eng katta muammolardan biri bu soʻzni toʻri foydalana bilmaslik chunki bir soʻz koʻp maʼnolarda kelishi mumkin uni tushinish uchun avval oʻqish qobiliyati yaxshi boʻlishi, faol soʻzlarni va grammatik qoidalarni yaxshi bilishi zarur.

Statistikaga nazar tashlaydigan boʻlsak kommunikativ yoʻl bilan nafaol soʻzlarni oʻrganish foizi 47%, takrorlas orqali oʻrganish 46%, matn orqali oʻrganish esa 45% larni tashkil etadi. Natijalar shuni koʻrsatdiki, nafaol soʻzlarni faollashtirishda kommunikativ metodlar eng samarali boʻlishi mumkin. Kontekstli qoʻllash ham yaxshi effekt berdi, ammo faqat takrorlashga tayanish yetarli emas edi. Bundan koʻrinib turibdiki soʻzni oʻrganishda kommunikatsiyaning oʻrni katta chunki biz kim bilandir nafaol soʻzlarni ishlatib suhbat qursak miyyamiz ushbu soʻzlarga moslashadi va bu soʻzlar bizning faol soʻzimizga aylanadi. Ularni suhbatda emas kitob, maqola oʻqib kino va video koʻrib, musiqa va audio eshtib ham oshirish



mumkin. Keling endi faol va nafaol ma'nosi bir hil ammo yozilishi va darjasi har xil so'zlarni ko'rib chiqamiz:

No	Faol	Nofaol	Ma'nolari
1	beautiful	attractive	chiroyli
2	clever	shrewd	aqli
3	strong	brawny	kuchli
4	difficult	challenging	qiyin
5	rich	wealthy	boy

Xulosa qilib aytganda, til o'rganishda leksik ko'nikmani samarali rivojlantirish uchun faol va nafaol so'zlar zaxirasini birgalikda kengaytirib borish lozim. Nofaol leksika tushunish ufqini kengaytirsa, faol leksika o'z fikrini erkin va aniq ifodalash imkonini beradi. Shuning uchun, til o'rganuvchisining asosiy vazifalaridan biri — nafaol so'zlar qatlamini doimiy ravishda boyitib borish va ularni turli nutqiy mashqlar orqali faol leksikaga o'tkazishdan iboratdir. Bu jarayon leksik ko'nikmaning har tomonlama va mukammal rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abbosova . N , Maxmudova .F (2023)O'ZBEK TILIDA FAOL VA NOFAOL SO'ZLARNING QO'LLANILISH METODOLOGIYASI .
2. Jo'raboyeva .Sh (2022)Talabalarda og'zaki nutqni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish texnologiyalari
3. Xasanboyeva .O(2022) Til o'rgatish metodikasida leksik birliklarning o'rni .
4. Sirojiddinova .SH ,Boboqulova .Sh (2022) Chet tilida leksik malakani shakllantirishning maqsadi va mazmuni.